O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN`AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI”

YO`NALISHI IV-BOSQICH TALABASI

ORTIQOVA FOTIMA

“Kuz ne’matlari”*mavzusida natyurmort ishlash (mato moybo’yoq 60x80)*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: ***Sh. Bekmurtova***

Andijon-2015 yil

MUNDARIJA

Kirish……3-4

1-bob. Natyurmort tuzishda kompozitsiyaning o’rni……... 6-8

1.1. Kompazitsiyani bajarishdagi o`ziga xos texnika va usullari……..9-14

1. 2. Natyurmort janrida ijod qilgan, mashhur xalq rassomlari va ularning ishlaridan namunalar……..15-24

2-bob. Rang tasvirda «kuz nematlari” ning amaliy – ijodiy texnalogiyasi ……..…...25-31

2.1. Natyurmort chizishda ranglarni bir-butunligini tasvirlash…….…..32-35

2. 2. Natyurmortda havo perspektivasi, yorug’ va soyalarning qo’llanilishi.....……..…36-43

2. 3. Rang tasvirda moybo`yoqdan foydalanish usullari……...44-68

Xulosa…….…69

Foydalanilgan adabiyotlar……..…..70-72

Ilovalar.

KIRISH

O’zbekiston «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da inson, uning xar tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ruyobga chikarishning sharoitlarining va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish , eskirgan tufakkur va ijtimoiy xulk atvorning andozalarini o’zgartirish amalga oshirilayotgan isloxatlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchi ekani, xalkning boy intellektual merosi va umumbashariy kadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot,fan-texnika va texnologiyalarining yutuklari asosida tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O’zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muxim sharti ekani ta'kidlandi.

Mustaqillik yurtimizga nafaqat siyosiy erkinlikni, balki, millatimizga millatdek, xalqimizga xalqdek yashash, mustaqil fikrlash erkinligini ham berdi. Shu tufayli biz san’at sohasini, uning tarixini dunyoviylik, insonparvarlik nuqtai-nazaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Yurtimizda sodir bo‘layotgan murakkab yaratuvchanlik tafakkur mustaqilligi bilan uzviy bog‘liq hodisadir. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimizning iqtidoriga bo‘lgan talab shuncha oshib boradi. Shuning uchun ham san’at sohasi yoshlarga ham o‘rta yoshlilarga ham, katta yoshlardagilarga ham birdek muomalaga kiradi. Bu ilm o‘zining tabiatiga ko‘ra chegara bilmaydi. Mazkur chegara bilmas ilmni egallashning mohiyatini bilmaslikdan bilishga, bilishdan komillikka tomon yo‘naltirilgan faoliyat tashkil qiladi. Bundan tashqari san’at ilmining yana bir muhim jihati shundaki, u qanchalik o‘zlashtirilsa, o‘zlashtiruvchi o‘z oldiga yana yangi-yangi muammolarni qo‘yaveradi, qo‘yilgan har bir muammoning echimi yangi bir muammoning debochasi hisoblanadi.

Respublikamizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarda barcha sohalardagi kabi bo‘lajak tasviriy san’at pedagoglarining zimmasiga ham o‘ta dolzarb muammoni yuklaydi. Tasviriy san’at orqali inson hayotida, uning axloqiy tarbiyasiga ta’sir etuvchi muhim omillardan tabiatni sevish, olloh in’om etgan jamiki rang-barang borliqni his qilish, san’at ob’ektidan hissiy lazzatlanish xususiyatlarini shakllantirish,

eng yuksak fazilatli, axloqiy pok, iymon va e’tiqodli, halol va sofdil, mehribon bo‘lish kabi insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda tasviriy san’atni natyurmort janrida milliy qadriyat sifatida o‘rgatish, uning pedagogik asoslarini ochib berish bugungi kunda rassom pedagoglarining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi yoshlar .

har tamonlama etuk bo`lishlari bilan birga ma`nan go`zal va nafis did sohiblari bo`lishlari zarurdir. Zero, muhtaram prezidentimiz bugungi yoshlar o`ta madaniyatli, san`atni teran xis etuvchi, ma`suliyat va burch xissini barcha narsadan ustun qo`yuvchi ziyoli bo`lib tarbiyalanishi zarurligini ta`kidlaganlar..

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: o’quvchi yoshlarga mavzuning nazariya bilan amaliyotini chambarchas bog’liqekanligini ko’rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: respublika san’at kollejlari maxsus maktab internatlari umumta’lim maktablari,viloyat, tuman rassomlar uyushmalari.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi: O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, “Ta’lim to’g’risida” gi qonun, O’zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim isloh qilishning har tamonlama barkamol shaxsning tarbiyalashga oid qarashlari,hukumat qarorlari, ilg’or pedagogik tajribalar .

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi: O’quvchilarga bitiruvchi tomonidan mavzuni nazariy asoslab berishi va amaliy tomonidan matoga moybo’yoqda yoritib berilishi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi – kirish ikki bob uning bo’limlari,xulosa,foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat**.**

1-BOB. Natyurmort tuzishda kompozitsiya o’rni

Natyurmort (lug’aviy ma'nosi- jonsiz tabiat) haqida odatda, sabzavot - mevalar, gullar, qotirilgan ilvasinlar, (mulyaj) uy ro’zgor buyumlarni tasvirni ko’zda tutadilar.

Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini sezamiz. Natyurmort kompozitsiyasini ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog’lanishda qo’yilishi kerak. Qo’yilgan natyurmort kishida , qiziqish va rasm chizishga havas xissini uyg’otadigan bo’lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo’lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, xajmi, materiali, sirti (fakturasi) rang va och – to’qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Masalan, katta chelak yoniga quyilgan gugurt qutichasini ko’z ilgamaydi, chunki ular o’rtasida uzviy bog’lanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarni predmet tekisligida bir -biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortni qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi,

- Sharden, Surbaran, Kalf, Snayders QKorovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmortnafis rassomlar asarlarida hayotiy xaqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko’ramiz.

Shardenning «piyozli natryumorti» da stol ustidagi ko’k piyozni cho’ziq shakli surat kompozitsiyasini cho’ziq bo’lishiga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin.

Shakli jixatdan unda zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro’zgorda zarur bo’lgan buyumlarni, mis, qo'goz, sopol va shisha idishlarni tanlagan.

Rassom ataylab shakl o’lchami, materiali bir - biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatli juda xos, narsalarning rang- barang va turli - tumanligi qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jahatidan, sodda ko’rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechasini odgan halos, Mazmunan bir - biriga monand mprgalardan tanlab olganidan keyin, ulardan shunday bir yaxlit guruh

tashkil kilish kerakki, u kishida qiziqish uyg'otsin, diqqatini o'ziga tortib, albatta uning tasvirini yaratish ishtiyoqini hosil qilsin.

Sharden natyumort tuzish tanlagan narsalar -mis qozon, sopol cho'mich, yashil rangli shisha idish, ko'k piyoz, ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat.

Bular ulkan mo'yqalam sohibining yuksak talanti, tabiatning boyligini ko'ra olishi va to'gri idrok qilishni natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uni tabiiyligidir. Shuning uchun natryumort tuzish, uni urnatish, vaqtida yaxlitlikka e'tibor berib, nihoyasiga etkazishga xarakat qilish lozim.

Buning uchun esa klassik namunalarni kunlab tahlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki interyerga nisbatan afzalliga yana shundaki, uni qo'yib olgandan keyin bir necha kun joyidan qo'zgatmasdan har - xil qarash nuqtalaridan qayta - qayta tasvirlash mumkun. Natyurmortning atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod kilish yoki o'rganish maqsadida o'zi yana tuzadi, tafakkuri bilan barpo etadi.

O'quv natyurmortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berish kerak.

Natyurmort qo'yilmasi puxta va uzoq vaqt o'ylab, mulohaza qilib tashkil etiladi. Unga ko'p narsa kirtilmasada predmedning shakl va ranglari har - xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Silliq yaltiroq sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma - yon qo'yilsa, ularni taqqosslash va sinchiklab o'rganish uchun imkoniyat tug'iladi.

Natyurmortning asosiy talablaridan biri o'lcham, rang va fon jihatidan ajralib turishi, xamda surat teksligining markaziga yaqin joyga qo'ya bilishdir.

Bu surat mazmunini ochishda, so'zboshlovchi vazifasini o'taydi, kompozitsiyaniig markazini bo'rttirib kursatib beradi. Ko'pincha raseomlar asosiy predmaetni ataylab markazdan sal siljitib qo'yadilarda muvozanatni saqlash uchun qarama - qarshi tomonda rang va och to'kligi unga zid bo'lgan peredmet oladilar.

Atoqli natyurmort nafislar Sezan, Sharden, Xrunskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar, natyurmort janrida O'zbekistonlik rassomlardan S. Kolibanov, Yu. Elizarov, R. Axmedov kabilar o'z asarlarida tabiatni beqiyos boyligini milliy ruxda jozibali tarannum etdilar.

O'quv natyurmortining muhim tomonlaridan yana biri shundaki tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo'yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda, biri ikkinchisining va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo'yiladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir - biriga bog'lash maqsadida unga cho'ziqroq shaklidagi narsa kiritiladi.

1.1. Kompazitsiyani bajarishdagi o`ziga xos texnika va usullari

Tasviriy san`atning nazariy asoslari bilan tanishish har bir mutaxasis uchunnihoyatda zarur. Bunda asosiy e’tibor kompozitsiya , nur va soyaning o`zaro muvofiqligi, rang shunoslik perspektivani o`rgatishga qaratiladi.

“**Kompozitsiya**” atamasi lotin tilidan olingan bo`lib, *tuzilish, birlashish, bog`lanish* ma`nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor g`oyasini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

O`zbek tilining izohli lug`atida “kompazitsiya – adabiy asar, san`at asari qisimlarining tuzilishi, joylashishi va o`zaro munosobati, tarkibiy qismlari ma`no jihatidan o`zaro bog`lanib birlik tashkil etgan badiy asar, muzika yoki rassomlik asari”,-deb ta`riflangan. Demak, kompazitsiya hozirgi zamon talqinida biror san`at asarining turli tomonlari, qismlari mushtarak yig`indisini anglatadi. Kompazitsiya tabiat, jamiyat va inson faoliyatiga bog`liq tushuncha. Tabiatdagi barcha jonsiz va jonli narsalar garmonik va dis garmonik yaxlitlikka-kompazitsiyaga ega. Masalan biror hayvon yoki daraxtga qarang. Hayvon oyoqlari, bo`yni, shoxi va qulog`i yo gavdasining birligi uning qanaqa hayvon ekanligini anglatadi. Asarning kompo-zitsion tuzilishi ijodkor g`oyasini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali rassom asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta`sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o`zaro bog`lab joy-joyiga qo`yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir tasviriy san`at asari ma`lum kompozitsiyaga ega bo`ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birrinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi. Kompozitsiya tuzishning o`ziga xos qonun-qoidalari, vosita va uslublari mavjud.

Tasviriy san`atda kompozitsiyaning asosan uch turi amal qiladi. Ular frontal kompazitsiya ,hajimli kompazitsiya chuqur fazoviy kompazitsiyadan iboratdir.

1.Frontal kompazitsiya. Bunda tasvir tekislik yuzasida ishlanadi.Ular rang-tasvir, relefli haykallar, binolarning old qismi - fasadidagi tasvirli naqishlar bo`lishi mumkin.

2.Hajimli kompazitsiya. Bunday kompazitsiyalar uch o`lchamga ega tasvirlar bo`lib,ularni har tomonondan kuzatish mumkin. Asosan yumaloq haykallar , amaliy san`at buyumlari, me`morchilik binolarining modellarida namoyon bo`ladi.

3.Chuqur-fazoviy kompazitsiya.Bunday kompazitsiyalar ko`poq turarjoy va jamoat binolarining ichki qismini, xususan uy ichki xonalari, jamoat joylarining foesi, teatr sahnasi kabilarning loyihalarida ko`zga tashlanadi.

Rang tasvir kompazitsiyasi ham tasviriy san`atda katta o`rinni egal-laydi.Bunga sabab tasviriy san`at oldiga qo`yiladigan vazifalarning aksariati, xususan kishilarda badiiy did, tafakkur va xotirani o`stirish, dunyoqarashni kengaytirish, tasviriy san`atni his etish malakalarini rivojlantirish rangtasvir kompazitsiyasining asosini tashkil etadi.

Kompazitsiya qonunlari- birinchi galda bir butunlik yoki suvrat detallarining o`zaro bog`liqligi qonuni, muvozanat qonuni, sur’atda yangilikning bo`lishi, kontrastlar qonuni, hayotiylik qonuni kabilar nazarda tutiladi.

Kompazitsiya qoidalari esa ritm, kompazitsion markazning bo`lishi, detal-larning simmetrik yoki assimetrik joylashuvi, kompazitsiyada harakat, turg`unlik, planlilik, paralellik kabilar nazarda tutiladi. O`quvchilar kompazitsiyaga xos qonun-qoidalar bilan birga uning uslublari va vositalari haqida ham ma`lum tasavvurga ega bo`lishlari lozim.

Kompazitsiya uslublari deyilganda tasvirni monumental tarzda ifodalash, fazoviy tasvirlash,detallarni tik, yotiq, dioganallar bo`yicha tasvirlash tushiniladi. Masalan, V.Surikov “Boyvuchcha Morozova” nomli asarida kompazitsiyadagi harakatni ko`rsatish uchun detallarni dioganal yo`nalishi bo`yicha joylashtirgan.

Kompazitsiya vositalari deyilganda chiziq,oq va qora ranglar,rang dog`lari, chiziqli va havo (rang) perspektivasi qoidalari asosida tasvirlash tushiniladi.

Kompazitsiyada kontrastlar qonuni ham alohida ahamiyat kasb etadi.Bu qonun asardagi detallarning rang va ton jihatidan bir-biridan keskin farq qilishini bildiradi.Xususan,ular och va to`q, iliq va sovuq rangda, og`ir va engil ranglarda bir-biriga qarama-qarshi bo`lishlari lozim.Shundagina sur’atdagi detallar bir-birining fonida aniq va ifodali ko`rinadi.

Tasviriy san`atda, ayniqsa rangtasvirda rangning ro'li benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g`oyasining to`la ochilishiga, uning tomoshabinga emotsional–hissiy ta`sirini kuchaytirishga,shu bilan birgalikda kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Asarda detallarning assimetrik joylashuvi esa detal,shakl,yorug` va soya, rang,harakat,holatlar orqali ro`y beradi. Detallarning asarda assimetrik joylashuvi rasm g`oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.Aytaylik, asarning ikki tomonida qarama-qarshi kuchlar tengsizligini ko`rsatmoqchi bo`lganida, rassom assimetriya qoidasidan foydalanishi mumkin. Detallar assimetrik bo`lgani taqdirda asarda muvozanatni buzilmasligi uchun rassom detallarni ritmik loylashtirishdan foydalanadi.

Rassomlar ko`pincha o`z asarlarida muayan ritm bo`lishiga e`tibor beradilar. Bu tasviriy san`atning barcha tur va janrlarida qo`llaniladi.Ritm ko`proq shakl, rang, o`lchov, nur va soya, harakat ko`rinishlarida ifodalanadi. U asar mazmuni bilan bog`liq bo`lib, muallifning g`oyasini tomoshabinga tez va oson etkazishga xizmat qiladi, asarni ifodaliyligini oshiradi.

O`zbekistonning Zarao`tsoyidan (Surxandaryo) topilgan ibidoiy odamlar ishlab qoldirilgan tasvirlarning nafisligi va mahorat bilan ishlaganligi hammaga ayon. Bu tasvirlarda ibtidoiy odamning kuzatuvchanligi, rang bilan narsa va hayvonlar rasmini bera olish qobiliyatini ko`rsata olgan. Ammo bu tasvirlarda narsa va hodisalar joylashuvi va tasvirda ibtidoiy odamning kompazitsiya yaratishdagi ojizligi ham ko`zga tashlanadi. Hayvonlar bir-biri bilan, ma`lum kompazitsion markaz bilan bog`lanmagan.

Badiiy tafakkurni primitiv shakli, primitiv kompazitsiyalar yaratishda o`z ifodasini topgan.

Kompazitsiya kursida tasavvurni shakllantirishda qaratilgan mashqlar ham bo`lishi kerak. Ular, adabiy mavzudagi vazifalar ham bo`lishi mumkin. Talabalar badiy asarning g`oyasini anglab yetishi, ishtirok etuvchi qahramonlar timsolini tasavvur eta olishi, tasviriy qiyos orqali asarning mazmunini talqin qila olishi kerak.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi.

Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda qudratli ekanligi ma'lum bo'lib, haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektming asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin.

Natyurmort (lug'aviy ma'nosi- jonsiz tabiat) haqida odatda, sabzavot - mevalar, gullar, qotirilgan ilvasinlar, (mulyaj) uy ro'zgor buyumlarni tasvirni ko'zda tutadilar.

Lekin natyurmortda jonsiz tabiat tasvirlanganiga qaramay, matoda jonli hayot nafasini sezamiz. Natyurmort kompozitsiyasini ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun yagona mavzudagi bir - biriga munosib va mos narsalar tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak. Qo'yilgan natyurmort kishida , qiziqish va rasm chizishga havas xissini uyg'otadigan bo'lishi va albatta kompozitsiya talablariga javob beradigan bo'lishi lozim. Natyurmort tarkibiga kiradigan narsalar estetik ta'sirchanlik talablariga javob beradigan, shakli, xajmi, materiali, sirti (fakturasi) rang va och – to'qligi (tus) bilan bir - biridan farq qilishi kerak.

Masalan, katta chelak yoniga quyilgan gugurt qutichasini ko'z ilg'amaydi, chunki ular o'rtasida uzviy bog'lanish sezilmaydi. Tanlab olingan narsalarni predmet

tekisligida bir -biriga nisbatan qanday joylashtirilishi natyurmortni qiziqarli chiqishiga ta'sir etadi.

- Sharden, Surbaran, Kalf, Snayders QKorovin, I. Mashkov, P. Konchalovskiy va boshqa natyurmortnafis rassomlar asarlarida hayotiy xaqiqatni, matoda jonlangan tabiatni ko’ramiz.

Shardenning «piyozli natryumorti» da stol ustidagi ko’k piyozni cho’ziq shakli sur’at kompozitsiyasini cho’ziq bo’lishiga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin

Shakli jixatdan unda zid narsalar izlab, Sharden sharsimon olmalarni, ovalsimon tuxumlarni va ro’zgorda zarur bo’lgan buyumlarni, mis, qo'goz, sopol va shisha idishlarni tanlagan.

Rassom ataylab shakl o’lchami, materiali bir - biridan farq qiladigan narsalar tanlashda tabiatli juda xos, narsalarning rang- barang va turli - tumanligi qiyos qilgan. Bir qarashda bu natyurmort mazmun jahatidan, sodda ko’rinadi. Rassom turmushda zarur narsalardan bir nechasini olgan halos, Mazmunan bir - biriga monand tanlab olganidan keyin, ulardan shunday bir yaxlit guruh tashkil kilish kerakki, u kishida qiziqish uyg’otsin, diqqatini o’ziga tortib, albatta uning tasvirini yaratish ishtiyoqini hosil qilsin.

Sharden natyumort tuzish tanlagan narsalar mis qozon, sopol cho’mich, yashil ragli shisha idish, ko’k piyoz, ikkita olma va ikkita tuxumdan iborat.

Bular ulkan mo’yqalam sohibining yuksak talanti, tabiatning boyligini ko’ra olishi va to’gri idrok qila olishini natijasidir.

Natyurmortning kompozitsion muayyanligi uni tabiiyligidir. Shuning uchun natryumort tuzish, uni o’rnatish, vaqtida yaxlitlikka e'tibor berib, nihoyasiga etkazishga xarakat qilish lozim.

Buning uchun esa klassik namunalarni kunlab tahlil qilib, u yoki bu asar insonga nima uchun shunchalik ta'sir etadi, zavqini keltiradi, degan savollarga javob izlash foydalidir. Natyurmortning manzara yoki interyerga nisbatan afzalligi yana shundaki, uni qo’yib olgandan keyin bir necha kun joyidan qo’zgatmasdan har - xil qarash nuqtalaridan qayta - qayta tasvirlash mumkun. Natyurmortning

atrofimizdagi tabiatdan farqi shundaki, uni inson ijod kilish yoki o’rganish maqsadida o’zi yana tuzadi, tafakkuri bilan barpo etadi.

O’quv natyurmortning kompozitsiyasi bir tomondan estetik talablariga, ikkinchi tomondan ta'limning didaktik talablariga javob berish kerak

Natyurmort qo’yilmasi puxta va uzoq vaqt o’ylab, mulohaza qilib tashkil etiladi. Unga ko’p narsa kirtilmasada predmedlarning shakl va ranglari har - xil bo’lishiga e'tibor berish kerak

Silliq yaltiroq sirtli idishni, sirti jilvasiz narsa bilan, qirrali buyumni dumaloq shakl bilan yonma - yon qo’yilsa, ularni taqqosslash va sinchiklab o’rganish uchun imkoniyat tug’iladi.

Natyurmortning asosiy talablaridan biri o’lcham, rang va fon jihatidan ajralib turishi, xamda surat teksligining markaziga yaqin joyga qo’ya bilishdir.

Bu surat mazmunini ochishda, so’zboshlovchi vazifasini o’taydi, kompozitsiyaniig markazini bo’rttirib ko’rsatib beradi. Ko’pincha rassomlar asosiy predmaetni ataylab markazdan sal siljitib qo’yadilarda muvozanatni saklash uchun qarama - qarshi tomonda rang va och to’qligi unga zid bo’lgan peredmet oladilar.

Atoqli natyurmort nafislar Sezan, Sharden, Xrunskiylar bu usuldan unumli foydalanganlar, natyurmort janrida O’zbekistonlik rassomlardan S. Kolibanov, Yu. Elizarov, R. Axmedov kabilar o’z asarlarida tabiatni beqiyos boyligini milliy ruxda jozibali tarannum etdilar.

O’quv natyurmortining muhim tomonlaridan yana biri shundaki tasvirlanaetgan narsalarning fazoviy joylashishidir. Qo’yilmaga kiradigan narsalardan kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda, biri ikkinchisining va asosiy narsani bir oz berkitib turadigan qilib qo’yiladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir - biriga bog’lash maqsadida unga cho’ziqroq shaklidagi narsa kiritiladi.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo, yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga

ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havorang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganishi va bilishi kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash moybo'yoq) naturmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlar texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

1. 2. Natyurmort janrida ijod qilgan, mashhur xalq rassomlari va ularning ishlaridan namunalar.

Тарвузли натюрморт 1992 й

Y.Elizarov. “So`zanali natyurmort”.

Pavel Petrovich Benkov

Pavel Petrovich Benkov 1879-yilda Qozon shaxrida tavvalud topgan. 1949-yilda Samarqandda vafot etgan. U O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san’at arbobi O`zbekistonning qadimiy shaharlari qiyofasi, o`ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o`zbek millatining betakror madaniyati, kishilari obrazi yorqin bo`yoqlarda gavdalantiriladi.

Uning “Buxoro timi” (1929 y.), “Xivalik qiz”(1931y), “Buxorodagi osh-xona” (1929y), “Eski Buxoro” (1931y), “Minorai Kalon” (1930 y.), “Dugonalar”, (1940y.), “Qahramonning onasi” (1942y.), “Jangchiga” (1945y.), “Dugorchi qiz” (1947y.), “Ko`cha”, (1943y.), “Registondagi choyxona”, (1944y.) nomliy asarlari, O`zbekistonning mumtoz me’moriy obidalari va manzalariga bag’ishlangan. Pavel Benkov Samarqandning ko`cha va bog’lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxo-nalari, ulardagi hayotning o`ziga xos go`zalligini yorqin va hayoti ifodalovchi o`nlab

asarlar yaratgan. O`zbekistonda tasviriy san’atning shakillanishida, milliy kadirlar yetishtirishga uning xizmatlari beqiyos bo`lgan.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova

Hozirgi zamon, O`zbekiston tasviriy san`atining manzara, portret, natyurmort va maishiy janrlarida barakali ijod qilayotgan, o`zbek rassomlaridan yana biri, Laylo Salimjonovadir.

Laylo Salimjonova gularni juda sevadi. Uning “Xrizontema natyurmorti”, “Oq gular”, “Moviy fondagi natyurmort”, “Xrizontemalar” kabi asarlarini kuzatib , gullardagi go`zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

1991 yilda yaratilgan “Xrizontemalar” nomli natyurmortida rassom gullarning guldonda tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko`ringan stolning perespektiv holati orqali asar kompozitsiyasini yaxlit namoyon etadi. Laylo Salimjonova mo`yqalamiga mansub asarlar, Angliya, Iordaniya, Isroil, Hindiston kabi ko`plab davlatlargacha yetib borgan. Uning “Qora qahva” nomli natyurmorti esa, Angliyalik mashhur shaxsiy kolleksioner tomonidan sotib olingan.

Laylo Salimjonova yurtimiz rassomlarining keksa avlodiga bo`lishiga qara-may, hanuzgacha ijod bilan band. U o`z suhbatlarida Z. Inog`omov, M.Saidov asarlarini sevishini, jahon san’ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o`zgacha hurmat bilan qarashini e’tirof etadi.

2-BOB. Rang tasvirda «Kuz ne’matlari” ning amaliy –ijodiy asoslari

Men “Kuz ne’matlari” kompozitsiyasini ishlashda asosan yorqin ranglardan foydalanishga harakat qildim. Avvalo manzara uchun ob`ekt tanlaganimda go`zal yurtimiz uchun umumiy bo`lgan yaxlit manzaralarni tanlashga qaror qildim. Inson uchun tabiatdan zavq olish, tabiat qo`ynidachalik bo`lmasa ham, inson nafaqat tabiatning eng chiroyli holatlarini sezish bilan birga, balki uning ma`yusona ko`rinishlarini ham idrok etadi. **.** Rang tasvir inson ruhini mustahkamlaydi, uning qalbini boyitadi va qaysiki inson hayotni sevar ekan, rassomlar tabiatni tasvirlashga urinaveradilar.

Ana shu ma`noda kartina kompozitsiyasi ustida ishlar ekanman, unda favqulotda va ortiqcha detallarni olib tashlashga, umumlashgan shakllar orqali umumiy rang gammasini, kayfiyatini, mazmuni va g`oyasini ifoda etishga urindim.

Natyurmort ustida ijodiy ish olib borish kompozitsion izlanishlar va ko`plab etyudlar yozishni talab qiladi. Etyudni kartinada takror qilish yaramaydi, chunki etyud asar g`oyasiga to`liq mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun asta-sekin o`ylangan obzor va asosiy detallari shaklini, koloritning holatini topib borishga harakat qildim.

Natyurmort ustida ishlashning rangtasvirni boshqa janrlari bilan umumiy tomonlari ham bor. Xuddi boshqa yerdagidek ham mavzu tanlash, mazmunni topish, asar o`lchami va formatini aniqlash, qismlarning o`zaro bir-biriga aloqadorligini topish, tasvirning yaxlitligi va birligiga erishish nazarda tutiladi. Kompozitsiyaning ko`rish qonunlari ishlatiladi.

Birinchi plan, natyurmortning g`oyaviy mazmunini ochib berishga va mashtabli idrok etishga, qismlarini tonal va kattalik jihatdan to`g`ri tasavvur berishga yordam beradi.

Men dastlab qalamda eskiz bajarishga kirishdim, so`ng qoralama va etyudlar bajardim. Tonal rang eskizlari ustida ishladim va kompozitsiyaning haqiqiy kattaligida (kartonda) eskizlar bajarishga harakat qildim.

.Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun -qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni hal

etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rang-tasvirda quyidagi asosiy masalalarni hal etish zarur:

• umumiy tus va rang holatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

• katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning "cho'zilishi", alohida buyumlarning hajmli shakl-larining batafsil rangli qayta ishlanishi;

• butun tasvirning umumiyligi,yaxlitligi hamda kom-pozitsiya markazini ko'rsata bilish.

Bu masalalarning har biri nima bilan yakunlanishini ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashning to'liq rangtasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari oralig'idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyurmortda ular fon, natura qo'yilmasidagi stol yuzasi va buyumlar hisoblanadi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi. N.N. Ge bejiz rassomlarni ogohlantirmagan: "Natura"dagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darhol, asosiy soya va yorug'likni umumiy sinchiklab o'rganib chiqing va har doim, har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizing hamda mayda bo'laklarga ohista kirishing. Mana sizlarga chizishning siri"[1].

Rangtasvirda ham ish boshlashdan awal naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5—10 minut vaqt sarflab, nuturaning umumiy rang munosabatlarini tush-unish kerak, eng och va eng to'q (zich) dog' qayerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to'yingan) ko'rinadi. Rangning uch xil o'ziga hosligi

bo'yicha natura qo'yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatliligi mavjud.

Obyektdagi umumiylikni topilishi rassomni naturadagi ikkinchi darajali belgilar, uni mayda bo'laklariga, koloritli masalaga mustasno holda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang holatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalg'itishga harakat qiladi. Shunday qilib naturaning ranglar qonuniyatlarida ham asosiyga erishiladi.

Rang munosabatlarini, avvalo, eng och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so'ng eng to'qini topib, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul. Keyingi tuslarga biroz to'qroq va biroz intensiv bo'lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Qo'yilmadagi eng och joy,har doim ham oq bo'lmaydi, eng to'q joy esa qora bo'lmaydi. Kuchli to'yingan yorqin ranglar ham kamdan-kam uchraydi. Natyurmortdagi qizil anorni odatda yorqinligi bo'yicha toza qirmizi rangda emas, balki uni 50%ga sustroq tusda berish ma'qul. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u tabiiy ko'rinishdan boshqacha bo'lib chiqib qoladi. Shuning uchun, ishga kirishishdan avval, umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak, munosabatlarni qanday bo'yoqlar yig'indisida bajarish — och yoki to'q, yorqinlikning (to'yinganlik) qanday chegarasida bo'lishini ham aniqlash muhim. Qisqa qilib aytganda, naturaning umumiy tus va rang holatini bilish kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda tasvirlashga to'g'ri keladi.

Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlagaiula palitradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydan xususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy obyekt oralig'idagi tus farqlarini topish

muhim. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi.

Rassomlarning amaliy tajribasida shunday bir jumlalar mavjud: "katta yorug'lik", "katta soya", "katta shakl", "katta ranglar munosabati". Bulardan maqsad natura obyektini yaxlit ko'rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir.

Naturani yaxlit idrok etganda, yorug'lik tikka ta’sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin. Ular tus bo'yicha yarim soya bilan yaxshi chiqishadi, yarim soya esa tasvirning yorug'lik qismlaridagi kuchga teng kelolmaydi. Soyadagi refleks yarim soyadan och bo'la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy tusiga bo'ysunadi. Obyektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruxi tusi va rangining to'g'ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to'g'ri bo'lishiga turtki bo'ladi.

Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi naturaga hos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo'yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Naturadan ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko'rsata bilishlari zarur. Hamma gap natura bo'yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko'rish va tushunib yetishdadir.

Yirik ko'rinishdagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so'ng, yorug'-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug soyasi, yarimsoya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda hajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o'tish mumkin. Shuni yodda tutish

kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang tusi bo'yicha, ham yorug'ligi bo'yicha, ham to'yinganligi bo'yicha tushayotgan yorug'lik nurining oraliq masofasiga, sinish burchagiga hamda atrofida o'rab turgan buyumlarning reflekslariga va kontrast munosabatlariga bog'liq holda o'zgaradi. Yorug'likka, yarim-soyaga yoki soyada yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal (buyum) rangi yarim-soyada sezilarliroq, chunki yarim-soya yorug'lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta'sir etadi.Buyumning xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo'yilmasining yaxlitligini to'g'ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko'zi sovuq rangni ko'radi, bir rang boshqasiga qo'shimcha bo'lgan rangni his qiladi. Buning natijasida naturadagi sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo'ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg'aldoq rangni ko'rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz.

Issiq va sovuq tuslar tasvir oxangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishni namoyon etadi.

Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo'laklarini chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko'plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug'likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg'ab olish uchun, ish jarayonida atrof muhitga bog'liq bo'lmagan buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o'tganimizdek buyumlarni yaxlit ko'rib, doimo ularni o'zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug'ligi va rangining eng quyuqligi va qayerda kamroq namoyon bo'lishini, so'ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak. Eslatib o'tamiz, ranglarni uch xususiyat bo'yicha

taqqoslaymiz: yorug'ligi, rang tusi va to'yinganligi. Agar biror bir rang yorug'ligi bo'yicha to'g'ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo'lmasa, bu rangni to'g'ri deb bo'lmaydi. Munosabatlar rang tusi va to'yinganligi bo'yicha ham aniqlangan bo'lishi kerak. Buyumlarni solishtirib o'xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havorang buyumni boshqa bir tusi o'zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko'rishga ko'mak beradi.

Buyumlarni rangi bo'yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish zarur. Ketma-ketlikdagi rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tusi uni nima bilan qiyoslashimizga bog'liq bo'lib, goh issiq, goh sovuq bo'lgan holda tuyuladi. Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak u sovuq tusda, havorang bilan taqqoslasak issiq tusda ko'rinadi. Shu sababli buyumning nozik tusini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to'q rangni to'q bilan o'zaro solishtirish kerak.

Tasvirlanayotgan buyumlarni nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo'yicha, balki tashqi ko'rinishining aniqligi bo'yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko'rinmaydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko'rinadi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Buyumdan tushayotgan soyalar chegarasi hamma joyda bir xil .emas. Ish jarayonida doimo munosabatlar bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni naturadagi xuddi shu gurux buyumlari bilan qiyoslab borish maqsadga muvofiq. Faraz qilamizki, birinchi ko'rinishdagi buyumlar guruxining ranglari ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar rangiga nisbatan juda ham yorqin va to'q tusdadir. Ularning naturadagi bu farqlarini sezgach, "palitra"da ranglarni alohida bitta emas, balki birdaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir.

Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha, haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq, hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialliligi munosabatlarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon atrofdagi tuslar to'g'ri topilmasa qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to'g'ri topilgan rang tuslari bilan naturani, uning xajmli shaklini to'g'ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialliligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma’lum bir buyum shakliga va obyektga tegishli bo'lsagina, materiallilik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi.

Ishning yakunida natyurmort, manzara yoki portretning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, xaddan tashqari tusi va rangi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan ajralib" ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo’yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan "chiqib" ketishi mumkin. Ba'zan, soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rinadi. Bu holatlarning hammasida ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi

2.1. Natyurmort chizishda ranglarni bir-butunligini tasvirlash

Rangtasvirda xuddi qo'shiq san'atida ovoz sozlash kabi, mohirona ko'z qarash ham juda muhimdir. Rassomga o'ta zarur bo'lgan bu malaka negizinidir.

Ranglar munosabati naturadagi buyumlarning ranglarini uch xil xususiyatini solishtirish usuli orqali aniqlanadi: ranglar tusi, yoritilishi va to'yinganligi. Bu uch xil alomat har qanday rangning to'liq tavsifi uchun asosiy hisoblanadi. Biroq, naturadagi buyumlarning ranglar munosabatini aniqlash, ularni galma-gal ko'rish xususiyati bilan mushkullashadi va shu bilan birga qarash, nazar yo'naltirilgan buyumga nisbatan "aniqlikka" moslashadi. Ko'z qorachig'i shunday tuzilganki, u buyumdagi in-gichka va yo'g'on chiziqlarni, tusni va kontrastlarni yaqqol ko'radi. Masalan, buyumlar guruhini ikki ko'rinishda joylashtirib, diqqat bilan birinchi ko'rinishdagi buyumlarga razm solsak, ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar noaniq va xiraroq yoki aksincha, agar ikkinchi ko'rinishga diqqat bilan qarasak ulardagi rang, yorug'-soya kontrasti hamda mayda bo'laklari aniqroq ko'rinadi.

Natura qo'yilmasida tus va ranglar munosabatini haqqoniy tasvirlash uchun naturadagi hamma jismlarga barobar qarashni bilish muhimdir. Agar ochiq deraza ol-dida turgan guldastani tasvirlamoqchi bo'lsak, bir vaqtning o'zida ham gullarni, ham deraza pardasini va deraza ortidagi shahar ko'rinishini ham kuzata bilishimiz zarur.

Natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonida har bir bo'lak joy tusini alohida emas, aksincha yaxlit tusda ko'ra bilish hamda ularning munosabatini ham sezish: eng ochi osmon, eng to'qi balkim yer, ularning orasidagi suv. Bo'laklar ustida ish olib borilayotgan jarayonda predmetlar guruxini yoki butun predmetni yaxlit ko'rish zarur. Naturaning alohida qismlarini yaxlit ko'rmasdan turib, yakka ko'rish mumkin emas. Naturadagi rang munosabat-larini faqat bir butun ko'rish orqali ularni matoda to'g'ri ifoda etish mumkin. Naturani yaxlit idrok etish to'g'risida ingliz rassomi D. Reynolds jumladan shunday degan:

"Agar rassom predmetlarga yaxlitlikda qarashni odat qilmas ekan, u qalamli tasvirda ham, rangda ham yuksak darajaga hech qachon erisholmaydi"[1].

"Odatda biz rang deb ataganimiz, — deb tushuntiradi R. Falk, — predmet bo'yog'idan o'zga narsa emas, u bizning yaxlit ko'rish sharoitidagi narsa ham emas. Shu ta-riqa biz uchun yangi ranglardan, yangi shakl va munosa batlardan tashkil topgan yangi bir dunyo paydo bo'ladi. Asarni alohida buyumlar emas, aksincha o'zaro bir-biliga bog'liq buyumlar, ular turgan muhit va siz ko'rayotgan joy yaratadi. Asar mana shu o'zaro bir-biriga bog'liqlik natijasida yaratiladi, u bamisoli tovushlari sozlangan musiqa kabidir. Umumiy ko'rish ya'ni, siz tasvirlamoqchi bo'lgan buyumlar guruxini yaxlit ko'rishga harakat qilish zarur. Qarshingizda turgan natyurmort, biz uchun bir asar bo'lib ko'rinishi kerak. Buning uchun vaqtinchalik bu kub, bu anor, olma ekanligini yoddan chiqarib turish lozim. Bular qarshingizdagi rangli asarning rangli bo'laklaridir. Asarning kuchi-uning bir butunligida, rang-barang oxangdorligida, ya'ni xuddi turli asboblar ishtirokidagi orkestr kabidir"[2].

O'zining rangtasvir usuli haqida K.A. Korovin shunday degan: "Men aniq bo'lishga, juda to'g'ri va juda yaxlit ko'rishga harakat qilaman"[3].

B.V. loganson quyidagi usul bilan yaxlit ko'rishdagi munosabatlar bilan ishlashning ma'nosini ochib berdi: Bizni doimo solishtirishga va doimo farqlarni aniqlagan holda ishlashga, aynan bir rangning yorug'lik kuchi va yengil rang turi bo'yicha boshqalardan farqlanishini hamda naturadan ana shu farqlarni "ajratib olish"ga o'rgatishgan... Hamma narsani bir joyga jamlab qaraganda, rassom to'satdan birinchi ovozga intilayotgan yorqin bir aniqlikni va unga jo'r bo'layotganlarni sezib qoladi; qaysidir kom-binatsiya o'zining birinchilik moh'iyatini yorqin bildirmoqda. Boshqa kombinatsiyalar esa unga bo'ysunadi, o'z o'rnida uchinchi kombinatsiyani o'ziga bo'ysundiradi va h.k."[1].

Yaxlit ko'rish va naturaning hamma bo'laklarini barobar solishtirish qobiliyatini shakllantirish — bu rangtas vir ta'limida muhim masala. Agar havaskor rassom bu masalalarni o'zida mujassamlashtirmasa, kelgusi ishlarida ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Aynan bir butun ko'ra bilishlik va munosabatlar bilan ishlay olish eng usta rassomni xavaskordan ajratib turadi.

Naturaga keng va umumiy qaray olish uchun rassomlar bir necha amaliy usullarni ishlab chiqishgan. Ulardan biri hamma narsani birdek saqlash; naturani kuzatish jarayonida ko'zni biroz "qisib" qarashdan iboratdir. Ko'zni qisib qaraganda unga tushayotgan yorag'lik miqdori pasayadi, buning natijasida xuddi oqshom payti kabi naturadagi ikkinchi darajali detallar xiraroq ko'rinadi.

P.P. Chistyakov yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlash uchun shunday maslahat bergan: "Doimo qalamda yorug'-soya topishda va koloritda "hayolan" ko'z oldida yassi bir oynani faraz qilish lozim: u munosabatlarni yaqqollashtiradi, usiz esa hamma narsa alohidalashib ketadi"[1].

R. Falk ham shu kabi maslahat bergan: "Manzaraga shunday qarash kerakki, u bamisoli deraza oynasi yuzasida mujassamlashgan bo'lsin. Bu munosabatda avval deraza ortidagi manzarani ishlash. foydalidir..."[1].

Ranglar munosabatini to'g'ri baholash uchun, oddiy romkali kuzatgichdan foydalanish mumkin. Naturaning ko'rinayotgan qismini romkaning ichiga joylab uni yaxlit ko'rish oson. Xuddi shu maqsadda yanada qulayi qattiq kartondan 2x1sm o'lchamdagi to'g'ri to'rtburchak kesib olinadi. Ishni boshlashdan avval naturani shu teshikcha-nin'g tekisligida yotgan proyeksiyasida kuzatish kerak. Agar biz buyumlar guruxini oddiy qarashda kuzatgan bo'lsak, endi esa ular bo'yoqlari bo'yicha oxangdor, bamisoli qim-

matbaho toshlar mozaikasiga aylanadi. Shu tariqa natu-radagi asosiy ranglar munosabatining antiqa yaxlit rangtasvir obrazi hosil bo'ladi.

2. 2. Natyurmortda havo perspektivasi, yorug’ va soyalarning qo’llanilishi

Tasvir tekisligidagi fazo huddi jismlarni hajmini tasvirlashdagi kabi qalamtasvir perspektivasini to’g’ri qo’llab qurish bilan ko’rsatiladi. Agar jismlar va joylar fazoviy muxitda perspektiva qonun- qoidalariga amal qilmay tasvirlangan bo’lsa, xavo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko’rsatib bera olmaydi. Yaqinda va uzoqda joylashgan jismlar, joylarni (natyurtmortda qam, manzarada qam) qurilishini kuzatuv perspektivasiga qat'iy amal qilgan qolda, tasvirlash lozim.

Borliq - fazoni ko’rsatishda narsalarni uzoqlashgan qolatdagi rang va tus o’zgarish qonuniyatlariga malum darajada amal qilib tasvirlash kerak (qavo perspektivasi). Masofaga qarab buyumlarning perspektiv kattaligi o’zgarganligi kabi, uzoqlashgan sayin uning rangi qam o’zgarib ko’rinadi.

Masofa uzoqlashgan sari birinchi navbatda rangning yorqinligi pasayadi. Orgadagi mevaning ranglari yaqindagiga nisbatan xolis-notiniq bo’lib qoladi. Masofaga boqliq holda tus ham yoruqlik qam o’zgaradi. Och jismlar uzoqlashganda, to’qlashadi, to’qlari esa ocharadi, xira tortadi.

Bunday o’zgarishlarga havoning qandaydir zichligi sabab jismlardagi rangli nurlarning o’tishi qiyinlashadi. Bundan tashqari bizning qarashimiz va uzoqdagi jism orasidagi hira shaffof havo ko’pincha havoranglilik xususiyatida bo’ladi. U uzoqlashgan jismlardagi ranglar bilan qo’shilib, ularga ko’kimtir tus beradi va soyalarini ochartiradi.

Shunday qilib uzoqlashganda barcha ranglar yorqinligini yo’qotib, havorang yoki ko’kimtir tusga kiradi, soyalari ocharib, och joylari to’qlashar ekan, bunda rang va tusning farqlari kamayadi, qarama-qarshi ranglar kuchsizlanadi, jism chiziqlari, ularning qajmi o’z aniqligini yo’qotadi.

Tasvirda fazo sifatlarini namoyon etish yo’lidan yana biri to’g’ri «shtrixlash» va bo’yoq surtmasidir. Old qatorda joylashgan jismlar chiziqli ishlovi aniqroq va zichroq

bo’yoqlar esa quyuq va yorqinroq bo’ladi. Uzoqdagi tasvir yumshoq va ochroq shtrixlanadi, bo’yoqlar esa suyuqroq va xiraroq beriladi.

Kolorit – bu san'at asarining rang sifatlarini umumiy estetik baholash, asarning barcha rang elementlarini o`zaro aloqasi xarakteri, uning rang to`zilmasi hisoblanadi. Koloritning eng katta xususiyati – ranglarning boyligi va o`zaro bog`liqligidir.

Kolorit – badiiy obrazning eng muhim komponenti, rangtasvir, rangli grafika, deqorativ san'atning ko`pgina asarlarida badiiy ifodalashning vositasidan biridir.

Rangtasvirda ranglarning birligi muhim rol o`ynaydi. Ko`pincha rang toni va yorqinligi bilan bir – biriga yaqin bo`lgan ranglar o`zaro birlashadi. Ranglar o`zaro tonli biriksa, unda sifat o`zgarishlari yuz beradi va jarangdorlik paydo bo`ladi. Agar rang umumiy tondan ajralsa, o`ziga mos kelmasa rangtasvir asarining yaxlitligi buziladi.

Badiiy asar barcha ranglarning o`zaro aloqasi hisobiga quriladi, unda hech qanday rang dog`larini o`zgartirish, kattalashtirish yoki kengaytirish mumkin emas.

Kartinadagi turli ranglarning tonli birligi, o`zaro aloqasi, garmonik mos kelishi kolorit deb ataladi. Kolorit bizning ko`z o`ngimizda dunyoning barcha rang boyligini ochib tashlaydi. U rassomni kartina kayfiyatini berishida yordam beradi. Kolorit tinch, quvonchli, qayguli va hokazo bo`lishi mumkin. Kolorit issiq va sovuq, yorqin va to`q bo`ladi.

Qadimgi davr rassomlarining asarlarini o`rganib chiqsak koloritning rivojlanishi tarixini bilib olishimiz mumkin. Kolorit tushunchasi XV asr oxiridan boshlab paydo bo`ladi. Koloritning imkoniyatlari barokko davrida, ayniqsa impressionistlar ijodida gullab yashnaydi.

Buyumlarning shakl va ranglarini qaqiqiy va tabiiy holatda ko’rish va qabul qilish odatini ruxshunoslar odatiy ko’rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko’rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang doqlarini ko’rishadi, balki narsalarni qaqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini qam shu qatorda qabul qiladi. Odatiy ko’rish natijasida qavaskor rassomlar qator «kolorit» qarakteridagi xatolarga yo’l qo’yishadi. Ular qavo bulut kunlari erdagi qorni tasvirlashda oq rangdan boshqa rangni ko’rmaydilar. Yashil barglar yoki o’t-o’lanlar kunning va ob-havoning turli vaqtida

ularning ranglavqalarida bir-xil yashildir, xuddi ularda samoning qavo rang tusi va tabiiy yoruqlikning o’zgargan kuchi o’z ta'sirini o’tkazmayotgandek.

Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko’ra bilishi va moqirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning qaqiqiy borliqdagi ko’rinishini tomosha qilishga muyassar bo’ladi. Aynan shartli rang qaqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo’lib qisoblanadi.

Tajribali rassomlar yoruqlik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo’layotgan nozik o’zgarishlarni qam bo’yoqlar vositasida moqirona tasvirlaydilar.

Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko’zdan kechirsak, qammasida ko’kimtir yashil tuslar yiqindisini ko’ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarqish-olovrang yoki qizqish koloritni ko’rish mumkin.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavxa koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yoruqlik manbai bilan yoritilganligiga boqliq.

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko’rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko’rishga yordam beradi» deya qat'iy maslahat bergan.

Moybo`yoq va laklar XV asrdan boshlab ishlatilib kelinmoqda. Ularni rang tasvirda qo`llashni Niderlandiyalik aka uka rassomlar Van Deyklar boshlab berganlar. Dastlab o`z asarlarining sathini turli moy va laklar bilan qoplashni sinab ko`rib, ular zig`ir moyi juda tez qurishini bilib qolganlar. Keyinchalik bo`yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va yorqin bo`yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo`lganlar. Moy bo`yoq texnikasini rivojlantirishga, ular katta xissa ko`shganlar.

Moybo‘yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo‘shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo‘lishi mumkin. Moyli bo‘yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo‘lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga

ba’zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo‘yoq qatlami tezroq quriydi va bo‘yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki moybo‘yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo‘yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo‘yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratilib, shu bilan birga to‘q ochligiga qarab ajratib joylashtirishi mumkin. Oq bo‘yoq odatda o‘rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo‘ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o‘rganadi va kerakli bo‘yoqni darov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Moybo‘yoqda tasvirlar ishlashning juda ko‘p o‘rganilishi kerak bo‘lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko‘p mashq qilish orqali o‘rganib olish imkonini beradi. Moybo‘yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o‘rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg‘ulotdir. Ammo bu mashg‘ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo‘lib, u moybo‘yoq rangshunoslik bilan bevosita bog‘liq. Moybo‘yoq tasvirlar ishlashni o‘rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o‘zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o’z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o’rtasida qaysi masalalarni qal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quyidagi asosiy masalalarni qal etish zarur:

umumiy tus va rang qolatlari va natura bo’yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning «cho’zilishi», aloqida buyumlarning qajmli shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;

butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi qamda kompozitsiya markazini ko’rsata bilish.

Bu masalalarning qar biri nima bilan yakunlanishini ketma-ketlikda ko’rib chiqamiz.

Tasvirlashning to’liq rangtasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari oraliqidagi tus va ranglar munosabatining aniq va to’qri ko’rsatilishi bilan aniqlanadi.

Natyurmortda ular – fon, natura qo’yilmasidagi stol yuzasi va buyumlar qisoblanadi. Manzarada esa – osmon oraliqidagi er yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o’rta va orqa oraliqdagi ko’rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «etyud»da noto’qri tasvirlansa, manzaradagi ob'ektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo’laklari ustida qar qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo’lmaydi. qalamtasvirni ishlashda qam taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko’radi. N.N.Ge bejiz rassomlarni ogoqlantirmagan: «Natura»dagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darqol asosiy soya va yoruqlikni umumiy sinchiklab o’rganib chiqing va qar doim, qar vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan qolda chizing qamda mayda bo’laklarga oqista kirishing. Mana sizlarga chizishning siri».

Rangtasvirda ham, ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o’rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, nuturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to’q (zich) doq qaerda, tusi va rang kuchi bo’yicha asosiy farqlar (to’yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to’yingan) ko’rinadi. Rangning uch xil o’ziga qosligi bo’yicha natura qo’yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatliligi mavjud.

Ob'ektdagi umumiylikni topilishi rassomni naturadagi ikkinchi darajali belgilar, uning mayda bo’laklariga, koloritli masalaga mustasno holda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang qolatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalqitishga qarakat qiladi. Shunday qilib naturaning ranglar qonuniyatlarida qam, asosiyga erishiladi, etyudning keyingi mayda detalli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini avvalo eng och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so’ng eng to’qini topib, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul.

Keyingi tuslarga biroz to’qroq va biroz intensiv bo’lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to’q hamda to’yingan qilib olinmaydi. Xattoki baqorgi o’t-o’lanlarni tasvirlashda juda eqtiyotkor bo’lish lozim. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u tabiiy ko’rinishdan boshqacha bo’lib chiqib qoladi. Shuning uchun, ishga kirishishdan avval, umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo’yoqlar yiqindisida bajarish – och yoki to’q, yorqinlikning (to’yinganlik) qanday chegarasida bo’lishini qam aniqlash muqim. qisqa qilib aytganda, naturaning umumiy tus va rang qolatini bilish kerak. Bunday qolatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo’yoqlarda tasvirlashga to’qri keladi.

Yoruq--soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydanxususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy ob'ekt oraliqidagi tus farqlarini topish muqim Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va erning aloqida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo’lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Rassomlarning amaliy tajribasida shunday bir jumlalar mavjud: «katta yoruqlik», «katta soya», «katta shakl», «katta ranglar munosabati». Bulardan maqsad natura ob'ektini yaxlit ko’rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir.Ana shularni hisobga olgan holda asardan nusxa ko’chirish jarayonini rangda davom ettirar edim.

Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi naturaga hos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan, tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo’yohlar birligini muvaffahiyatli bajara olishmaydi. Naturadan ishlash jarayonida har bir anih holatda koloritni tushunib etish, tusli va rangli holat xususiyatini ko’rsata bilishlari zarur. Xamma gap natura bo’yohlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko’rish va tushunib etishdadir.

Yirik ko’rinishdagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so’ng, yorug’-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug’ soyasi, yarim soya,

shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda hajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o’tish mumkin. Issiq va sovuq tuslar tasvir oxangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko’rinishni namoyon etadi.

Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo’laklarini chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko’plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug’likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg’ab olish uchun, ish jarayonida atrof muhitga bog’liq bo’lmagan buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o’tganimizdek buyumlarni yaxlit ko’rib, doimo ularni o’zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug’ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kamroq namoyon bo’lishini, so’ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak.

Matoning to’liq yuzasi bo’yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to’g’ri olinmaguncha, haqiqiy jarangdor bo’yoqlarni, yorug’lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo’lmaydi. Palitradagi yorqin bo’yoq, hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialliligi munosabatlarning to’g’ri olinishiga bog’liq, aks holda yon atrofdagi tuslar to’g’ri topilmasa qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo’lmaydi. O’rol Tansiqboyev asarlarida masalaning ana shu jihatlariga to’liq e’tibor berganligini asaridan nusxa ko’chirish jarayonida ko’rib, yana bir bor amin bo’ldim.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to’g’ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog’lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to’g’ri topilgan rang tuslari bilan naturani, uning xajmli shaklini to’g’ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialliligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o’z ma'nosini yo’qotadi. Och va to’q, rangli va rangsiz bo’yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo’lsagina, materiallilik, ranglar uyg’unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perspektivasi tufayli ranglar o’zgarishini ko’rsatib beruvchi rangli dog’lar emas, balki er yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to’g’ri to’rtburchakli va notekis maydonlarni o’lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o’zgarib manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog’larni, masalan, ikkinchi va olis ko’rinishda umumiy rang dog’larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning relefini va o’simliklar tuzilishini tasvirlash kerak ekanligini mohir musavvir yaxshi bilgan. Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, qamma narsani birdaniga ko’rish ya'ni «tikilib qarash» kerak. Buyumlar guruxining barchasi tarqoq bo’lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga qam, etyudga qam yaxlit qarash kerak, shunda qaerda qanday xatoga yo’l qo’yilganligini ilqab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko’ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko’rish – rangtasvir ishlash maqoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo’lgan rassom, naturani obrazli ko’rinishini to’qri ifoda etishi, undagi asosiy va qar bir bo’lakning o’z o’rnini topishini, ishning yakuniy darajasini qamda kompozitsiyaviy markazga bo’ysundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yig’indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yig’indisiga yaxlitlik, birlik, shu qismlarning bir-biriga bo’ysunganligi va jamlanganligi qo’shiladi. Akademik E.A.Kibrik tasvirlashning yaxlitligi qaqida shunday yozgan: «Yaxlitlik qonuniga bo’ysunmasdan turib naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, hang qam o’z-o’zidan mavjud bo’lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo’ladi».

2. 3. Rang tasvirda moybo`yoqdan foydalanish usullari

Moybo'yoqda natyurmort kompozitsiyasini ishlashga o'rgatish

Rangtasvir mukammal qalamtasvirga asoslanadi. Shuning uchun rangtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga kiskacha tuxtalib utamiz. Tasvirlovchi narsalar tuplamiga (natyurmort) ma'lum bir kurish nuqtasidan karaydi va u ko'z karashiga katiy ravishda ko'zatish perspektivasi konuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashkari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga boqlangan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug'liklar taksimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo kurish nuqtasi o'zgartirilsa naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Kurish nuqtasi yorug'likka karama-karshi bulganda tasvirni siluet tarzida kurish mumkin. Natyurmortni tasvirlash jarayonida tuplamdagi barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi… soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga buysundiriladi va idroq kilinadi. Natyurmort kompozitsiyasini shunday to'zish kerakki, uni kaysi nuktadan ko'zatganda xam u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffakiyatli chikishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan kizikarli kurish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varoqi yoqi mato qanday ulchamda bulishligini aniqlash zarur. Qog'oz varoqida ifodalanadigan natyurmort kuyilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoqi qog'oz varoqi tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki,ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka kat'iy rioya kilish, samarali natija garovidir.

- Natyurmort kompozitsiyasini kurilishida dastlab qog'oz yo'zasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz ulchamiga nisbatan tasvirning katta kichikligini aniqlashdan iborat. Uar bir natura kuyilmasi muayyan ulchamdagi qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma’lum ulcham tekisligida «tikilinch», yoxud juda xam kichik joylashib olmasligi zarur. Ulardan tashkari kichik joylashgan tasvirlar qog’oz tekisligida aniq kurinmaydi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. ulchamni aniqlab olgach,asosiy ishni boshlashdan oldin kichik ulchamdagi qog’oz bo’lagida bo’lajak natura kuyilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so’ng,asosiy ishga o’tish maksadga muvofikdir.

Dastlab oddiy natura ko’yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan)… keyin esa geometrik shakllarga yakin bo’lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash so’ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan ko’yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Natyurmort ko’yilmasini tasvirlashda ishni aloxida-aloxida buyumlardan boshlab so’ngra boshqalariga o’tish aslo mumkin emas. Narsalar guruxini qog’ozga to’g’ri joylashtirishda nisbat,oraliq masofalar,fazoviy joylashuvda xatolikka yo’l ko’ymaslik muximdir. Buning uchun narsalar to’plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o’ta muxim.

Rangtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, xajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni tulik bajarishmaydi. Ularning diqqat e’tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga karatilgan bo’ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko’rinishi chizilsa, shakl xam to’g’ri tasvirlanadi deb xisoblaydilar. Buyumning tashki ko’rinishini tasvirlayotib,uning konstruktiv kurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan kolib ketishi mumkin.

Narsalarning o’zaro joylashuvi, istagan qirrasini yunalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo’naltiruvchi va vertikal (tik), gorizontal (yotik) chiziklari yordamida tasvir qog’ozda yengil ko’riladi. O’zun qalam yordamida qurilmaning

perspektiv burchaklarini, kirra nisbatlarini, stol tekisligida o’zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho’zilgan kulda vertikal, gorizontal yoqi burchak ostida ushlab kirralarni perspektiv yo’nalishini tekshirish mumkin.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib kurish xamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini xam va ularning o’zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to’plamini joylashtirishda ularning asoslarini qurish juda xam muxim. Uar bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar xavoda «muallak» bulishi yoki biri ikkinchisiga «uyib» kirgandek ko’rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida aloxida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini xar doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Moybo’yoqli rangtasvir uchun matoda ko’mir yordamida yorug’ va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarni xajmdor shakli yorug’ soyalar bilan kurilsa qalamtasvir aniq ko’rinadi. Tayyor bo’lgan tasvirni tashki ko’rinishlari tush bilan chizib chikib, ko’mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo’yash uchun zarur bo’lgan natyurmortning aniq ko’rinishi qoladi.

Rang bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha albatta metodik ketma-ketlikka rioya kilish muximdir.

Endi o’quv natyurmortini amaliy bajarishga utamiz. Dastlab fakat tusli (grizayl texnikasidagi rangtasvir)… keyin rangli (akvarel va moyli bo’yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar

axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rang- tasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'- soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rga nish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Natyurmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona

ichiga qo'yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug' qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'rnida jo'yali qo'llash muhimdir.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchaning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin. Ya'ni: limon rang qadimiy, sariq qadimiy, och oxra, tabiiy siyena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq qadimiy, qizil oxra, kuydirilgan siyena, och qizil, guldor, qizil kraplak. Karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to'q jigar rang), qora.

Tabaiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning uzaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi.. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir havo rang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonda bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchu

nyuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Biz bilamizki, axromatik rang grekcha tussiz rang degani bo`lib. Ular bir-biridan yorug`lik kuchlari bilan farq qiladi. Axromatik ranglarga oq, kul rang va qora ranglar hamda ularni har xil nisbatda aralashtirishdan hosil bo`ladigan barcha ranglar tuslari axromatik ranglar deyiladi. Spektrda axromatik ranglar qatnashmaydi.

Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektr ranglari tartibida qizil, zarg`aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori ranglari, ranglarga bo`yab chiqib, o`z o`qi, ya'ni ventilyator o`qiga o`rnatib o`z o`qi atrofida tez aylantirsak umumiy ko`rinishdagi kul rang tunini kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug`roq bo`lgan och kul rang hosil bo`ladi. Shu etti rangni palitrada aralashtirib kursak qoramtir tusdagi ko’rimsiz aralashma hosil bo`ladi.

Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar ya'ni biror rang tusiga ega bo`lgan ranglar holati ranglarga kiradi.

Tabiatdagi mavjud ranglarni yana o`z navbatida iliq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Ranglarning bu xususiyatlari ham ularning asosiy xossalaridan biridir.

Iliq ranglarga quyoshni, alangani, temirning taftini eslatuvni sariq, zarg`aldoq, qizil sarg`ish, yashil kabi ranglar kiradi. Iliq ranglarning asosiy xossalaridan biri shuki, ular ko`zga tez tashlanadi, hamda sezgi organlariga kuchli ta'sir etadi. Barcha iliq yoki ochiq ranglarni shartli ravishda burtgan yoki aktiv ranglar deb atash mumkin. Rasmda oldingi planni tasvirlashda ko`pincha iliq ranglardan foydalaniladi. Ayrim hollarda iliq ranglarni yoqimli deb atash ham mumkin. Sovuq ranglar aksincha, yoqimsiz ranglar deb yuritiladi. Sovuq ranglarga esa muz, suv, osmonning ranglarini eslatuvchi ko`kish yashil, zangori va binafsha, havo rang, to`q yashil, ko`kish qizil ranglar kiradi. Sovuq ranglar ko`pincha oG`irlikni, xajmdorlikni, uzoqlikni bildiruvchi ranglar sifatida qaraladi. Iliq va sovuq ranglar dekorativ bezash

ishlarida keng qo`llaniladi, hamda rangli tasvir ishlashda juda qo`l keladi. Iliq va sovuq ranglarning fazoviy xususiyatlarini tekshirishda 3-a rangli rasmdan foydalanish mumkin. Bu rasmda uchta bir xil o`lchamdagi kul rang, yashil, qizil doiralar tasvirlangan. Agar biz shu rang doiralariga diqqat bilan qarasak dastavval qizil rang keyin esa yashil rang va nixoyat oxirida kul rang idrok qilinadi. Tajribali rassomlar ranglarning bu xususiyatlaridan orqa planlarni tasvirlashda, rangli tasvirdagi bo`shliqlarni ifodalashda foydalanadilar.

Iliq ranglar: o`tni, qizigan jismlarni, quyoshni eslatuvchi sariq, to`q sariq, sarg'ish, zarg`aldoq, qizil va boshqa ranglar. Iliq ranglarni mashq qilish uchun bir qancha to`g`ri to`rtburchak shakllaridan chizib olinadi. So`ng har bir katak ichiga naqqoshlikda keng qo`llanadigan sodda barglardan chizib chiqiladi. Chizilgan barglarni iliq ranglarga bo`lib chiqiladi. Hamma barglar bir xil rangda bo`lmaydi, balki, ko`pgina iliq ranglarga bo`yaladi.

Sovuq ranglar: muzni, qorni eslatuvchi havo rang zangori, ko`kish yashil, to`q binafsha kabi ranglar. Sovuq ranglarni mashq qilishlik uchun bir qancha to`g`ri to`rtburchak shakllaridan chizib olinadi. So`ng har bir katak ichiga naqqoshlikda keng qo`llaniladigan sodda barglardan chizib chiqiladi. Chizilgan barglarni sovuq ranglarga bo`yab chiziladi. Hamma barglar bir xil rangda bo`lmaydi, balki ko`pgina sovuq ranglarga bo`yaladi.

Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli»' va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini xisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u

qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'qligi ya'ni - och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kont bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini

qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yog'ida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg'ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o'rganib borishni taqozo etadi.

Talabalar rangshunoslik nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda topshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'k rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati-rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi

deganda uning kul rashta nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sargash, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oqrang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel-rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarelning nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukunni va biriktiruvchi modda sifatida olcha yelimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan

bo’lgani uchun bo’yoqqa suv qo’shib suyultirib ishlatiladi.

